

SHIFOKOR



SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT UNIVERSITETI
NASHRI

SO'ZI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

Prezident Shavkat Mirziyoyev sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda aholiga malakali va zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish, sohada boshqaruv samaradorligini oshirish, xususiy sektor imkoniyatlaridan kengroq foydalanish hamda hududlarda tibbiyot infratuzilmasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Taqdimotda, avvalo, xususiy sektorning soha rivojida o'rni va bu boradagi mavjud imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, 2016-yilda yurtimizda 3,2 mingta xususiy klinika faoliyat yuritgan bo'lsa, 2026-yilda ularning soni 8,7 mingtaga yetishi kutilmoqda. Xususiy tibbiyot yo'nalishlari 39 tadan 116 taga, ushbu sektordagi koyka o'rinlari esa 16 mingdan 57 mingtagacha ko'paydi. Xususiy sektorning umumiy koyka fondidagi ulushi 12 foizdan 31 foizgacha oshishi prognoz qilinmoqda.

Shu bilan birga, tizimdagi ayrim muammolar ham ko'rsatib o'tildi. Jumladan, tibbiy xizmatlar sifati ustidan amaldagi nazorat mexanizmlari yetarli darajada samara bermayotgani, litsenziyalash talablari zamon talablariga to'liq javob bermasligi, xususiy klinikalar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona elektron tizimda shakllanmagani, shuningdek, investitsiya loyihalari bilan manzilli ishlash tizimi yetarli emasligi qayd etildi.

Shu bois, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va uning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlar taqdim qilindi.

Xususan, tibbiy faoliyatni litsenziyalash bilan bog'liq barcha vazifalar Tibbiyot tashkilotlarini litsenziyalash va akkreditatsiyalash markaziga o'tkazilib, 2026-yil 1-iyuldan litsenziyalash tartiblarini kuchaytirish, bemor xavfsizligi va tibbiy yordam sifatini ta'minlashga doir 48 turdagi litsenziya talablarining 14 tasini qayta ko'rib chiqish taklif qilindi. Mazkur jarayonda ko'p tarmoqli klinikalar faoliyatini to'liq to'xtatish amaliyotidan voz kechib, faqat aniq qoidabuzarlik aniqlangan yo'nalish bo'yicha cheklov qo'llash tartibi nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, tibbiyot tashkilotlarining litsenziya talab va shartlariga rioya qilinishi bo'yicha sifat nazorati kuchaytirilib, elektron axborot tizimida masofaviy baholab borish orqali nazorat qilish yo'lga qo'yiladi.

Qolaversa, nodavlat tibbiyot tashkilotlariga litsenziya

doirasidagi barcha yo'nalishlarda budget mablag'lari hisobidan tibbiy xizmat ko'rsatishga ruxsat berish, akkreditatsiyadan o'tgan xususiy muassasalarga transplantatsiya faoliyati bilan shug'ullanish imkonini taqdim etish, 2028-yildan boshlab akkreditatsiyadan o'tmagan nodavlat va respublika darajasidagi davlat tibbiyot muassasalari bilan Sug'urta jamg'armasi tomonidan tibbiy xizmatlarning xaridini amalga oshirmaslik taklif etildi.

2030-yil yakuniga qadar barcha davlat tibbiyot muassasalari bosqichma-bosqich, xususan, 2027-yil 1-aprelgacha 55 ta respublika, 2028-yil yakuniga qadar 413 ta hududiy hamda 2030-yil yakunigacha 3 mingdan ortiq tuman (shahar) davlat tibbiyot tashkilotlari faoliyati majburiy litsenziyalanadi.

Xususiy tibbiyotni rag'batlantirish uchun iqtisodiy qo'llab-quvvatlash choralari ham muhokama qilindi.

Jumladan, olis hududlarda yangi klinikalar ochish uchun 200 million AQSh dollarlik imtiyozli kredit



SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

resursi ajratilishi, har bir loyiha uchun 10 yilgacha muddatga 10 million AQSh dollardan kredit berish, asosiy stavkaning 50 foiz qismi uchun kompensatsiya mexanizmini qo'llash nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy mutaxassislariga ijtimoiy soliqni 1 foiz etib belgilash, tibbiy uskuna va butlovchi qismlar bo'yicha bojxona imtiyozlari berish kabi yengilliklar taklif etildi.

Taqdimotda sohaga investitsiyalarni jalb qilishning yangi tizimi ham ko'rib chiqildi.

Buning uchun Tibbiyot va farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligini tashkil etish, investorlarga konsalting va amaliy xizmatlarni "yagona darcha" tamoyili asosida

ko'rsatish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini professional asosda shakllantirish va ilgari surish mexanizmini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Xususan, agentlikka sohaga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish, investitsiya va davlat-xususiy sheriklik loyihalariga ko'maklashish, davlat tibbiyot tashkilotlarini boshqaruvga berish vakolati beriladi hamda agentlik ta'sisshiligidagi investitsiya loyihalarini shakllantirish, kelishish va amalga oshirishda ko'maklashuvchi aksiyadorlik jamiyati shaklidagi "Health Invest" kompaniyasi tashkil etiladi.

Xorijiy ekspertlar bilan birgalikda davlat tibbiyot muassasalarini korporativ boshqaruv tamoyillari asosida transformatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqish taklif etildi. Shuningdek, xorijiy konsultantlarni jalb qilgan holda tibbiyot tashkilotlarini loyihalashtirish, qurish va ishga tushirishga oid shaharsozlik hamda sanitariya qoida va me'yorlari qayta ko'rib chiqilib, xalqaro talablarga moslashtirilishi belgilandi.

Davlatimiz rahbari takliflarni ma'qullab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

Manba: Prezident.uz

PREZIDENT QARORI: QURBON HAYITI KUNLARI AHOLI SALOMATLIGI, IJTIMOIY HIMOYA VA XALQ MANFAATLARI USTUVOR BO'LADI

Prezidentimizning «Muborak Qurbon hayiti munosabati bilan aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va mehr-saxovat tadbirlarini samarali tashkil etish to'g'risida»gi qarori yurtdoshlarimiz tomonidan katta xursandchilik bilan kutib olindi.

Prezidentimizning «Muborak Qurbon hayiti munosabati bilan aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va mehr-saxovat tadbirlarini samarali tashkil etish to'g'risida»gi. Mazkur hujjatdan aholi salomatligini saqlash, ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy himoya qilishga doir bir qator muhim chora-tadbirlar o'rin olgan.

SSV matbuot xizmati tomonidan tayyorlangan infografikada ushbu qaror mazmun-mohiyati o'z ifodasini topgan.

Sog'liqni saqlash vazirligi
Matbuot xizmati.

10 ming nafar

bolada jarrohlik amaliyotlari utkaziladi



"Muborak Qurbon hayiti munosabati bilan aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va mehr-saxovat tadbirlarini samarali tashkil etish tuzgirisida"gi Prezident qarori (PK-196-son, 21.05.2026 y.) qabul qilindi.



Qarorga kura, muborak Qurbon hayiti munosabati bilan kuyidagi toifa'dagi bemorlarning tibbiy tekshiruvdan utish, jarrohlik amaliyoti va davolash xarajatlarini qo'llab beriladi:



10 MING NAFA

ogir va nogironlikni kelтиrib чиқарувчи касалликларга чалинган 10 ming nafar bolalarda jarrohlik amaliyotini utkazish;



2,3 MING NAFA


onkologik, gematologik va onkogematologik tashxis kuyilgan bemorlarni tibbiy tekshiruvdan utkazish, ularni davolash va jarrohlik amaliyotini utkazish;



KAMIDA 350 NAFA

bemorlarda jigar va buyrak transplantatsiya amaliyotini utkazish.

Shuningdek, ijtimoiy himoya muxtoj kuyidagi bolalarning omonat hisobvaraqlariga 200 AQSh dollari miqdorida pul mukofoti utkaziladi:



etim bolalar va ota-ona karomogidan mahrum bulgan bolalar (vasiylilik, xomiylik va patronatdagi bolalar);



Meхрибонлик uy-lari, onlaviy bolalar uy-lari, kichik хажмили bolalar uy-lari хамда "SOS" bolalar маҳалласи тарбияланувчилари;



Ватан сархадларини химоя қилиш йулида қурбон булган ота-оналарнинг фарзандлари;



"Taskin Children's Hospice" bolalar onkologik shifoxonasida davolanayotgan bolalar.



Shuningdek, 500 ta masjidida aholi uchun kulay sharoitlar yaratiladi, ta'mirlanadi hamda joylardagi kabristonlar obod qilinadi.



Muqaddas qadamlarini obodonlashtirish va mehr-saxovat tadbirlarini tashkil etish хамда мувофиқлаштириш буйича худудий кенгашлар ташkil этилади.

9 MAY —

XOTIRA VA QADRLASH KUNI

Vatan va xalq ozodligi, el-yurt ravnaqi, kelgusi avlodlar baxtu saodati yo'lida mardlik va matonat ko'rsatgan ajdodlarimiz xotirasi hamisha barhayot yashaydi. Oradan yillar, asrlar o'tsa-da, ularning jasorati yoshlarimiz uchun abadiy ibrat namunasi bo'lib qolaveradi.

Bugun — ana shunday fidoyi ajdodlarimiz xotirasi o'zgacha ehtirom bilan yodga olinadigan, duogo'y faxriylarimiz, nuroniy otaxonu onaxonlarimiz yana bir karra qadrlanadigan kundir.

Ushbu sana munosabati bilan mamlakatimiz bo'ylab xotira tadbirlari, marosimlar va ziyoratlar tashkil etilib, urush va mehnat faxriylariga yuksak hurmat va e'tibor ko'rsatilmoqda. Jamiyatda tinchlik va barqarorlikni asrash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, ta'lim muassasalari va tashkilotlarda ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar o'tkazilib, tarixiy xotirani saqlash va unutmashlikning ahamiyati keng targ'ib etilmoqda. Bu kabi tadbirlar yoshlarda yurtga muhabbat va sadoqat tuyg'usini yanada mustahkamlaydi.

Xotira va qadrlash kuni — faqat o'tmishni yod etish emas, balki bugungi tinch va farovon hayotning



qadriga yetishga, kelajakni yanada barqaror qurishga chorlovchi muhim sana hisoblanadi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti ushbu umumxalq bayrami munosabati bilan barcha yurtdoshlarimizni qutlab, har bir xonadonga fayzu baraka, tinchlik-xotirjamlik, baxtu saodat tilaydi.



Xotira — abadiy, qadr — muqaddas!

9-may — "Xotira va qadrlash kuni" yurtimizda inson qadri, mehr-oqibat va hurmat timsoli sifatida keng nishonlanadi.

Bu kunda Vatan ravnaqi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona xizmat qilgan insonlar xotirasi yod etilib, bugungi kunda safimizda bo'lgan faxriylar va ustozlarga alohida ehtirom ko'rsatiladi. Xotira — muqaddas, qadrlash esa xalqimizga xos yuksak fazilatdir.

Ushbu sana munosabati bilan universitetda ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbir davomida universitet ravnaqiga munosib hissa qo'shgan, uzoq yillar samarali faoliyat yuritgan marhum ustoz va fidoyi pedagoglar xotirasi chuqur hurmat bilan yod etildi. Ularning ilm-fan, ta'lim va tibbiyot rivoji yo'lidagi xizmatlari alohida e'tirof etildi.

Shuningdek, bugungi kunda universitetda faoliyat olib borayotgan faxriy va yoshi ulug' ustozlar e'zozlanib, ko'p yillik samarali mehnati, yosh avlod tarbiyasidagi fidokorona xizmatlari uchun universitet tashakkurnomalari hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

Qurbon hayiti — inson qadri ulug'lanadigan ayyom

Qurbon hayiti insonlar o'rtasida mehr-oqibatni mustahkamlash, ehtiyojmandlarga yordam ko'rsatish va ma'naviy qadriyatlarini ulug'lashga xizmat qiladigan ulug' va muborak ayyomdir.

Ushbu qutlug' ayyom jamiyatda insonparvarlik, saxovat, shukronalik va bag'rikenglik kabi qadriyatlarini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Bayram kunlarida aholi o'rtasida mehr-oqibatni kuchaytirish, yordamga muhtoj insonlarni qo'llab-quvvatlash hamda milliy an'analarni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bayram kunlarida oila davrasida, yaqinlar, yoru do'stlar, qarindosh-urug'lar bilan ulug' ayyomni nishonlash uchun ajoyib imkoniyat yaratiladi. Nuroniyning ko'ngliga yo'l topish, shirindan shakar bolajonlarimizga hayitliklar ulashish, bayram ne'matlari bilan qo'ni-qo'shni, miskin-u faqirlarni yo'qlash insonni qadrlashning yorqin ifodasidir.

Shuningdek, Qurbon hayiti insonni sabr-toqat, kechirimlilik va mehr-oqibatga chorlaydi. Ushbu muborak kunlarda ko'ngillar yumshab, jamiyatda birdamlik va hamjihatlik yanada mustahkamlanadi. Yaxshilik qilish, ezgulik ulashish va savob ishlarni ko'paytirish har bir inson uchun ma'naviy yuksalish manbaiga aylanadi.

Bayram munosabati bilan ko'plab xonadonlarda xayriya ishlari yo'lga qo'yilib, ehtiyojmand oilalarga yordam ko'rsatiladi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy hamjihatlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini yanada kuchaytiradi.

Qurbon hayiti — nafaqat diniy bayram, balki insoniy fazilatlarini ulug'laydigan, qalblarni poklaydigan, ezgulik va rahm-shafqatni targ'ib etadigan ulug' ayyomdir. Har bir ezgu amal va yaxshi niyat ushbu kunning haqiqiy ma'nosini yanada boyitadi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti rahbariyati oliyog'ahda mehnat qilayotgan barcha professor-o'qituvchilar, xodimlar hamda talabalarni muborak Qurbon hayiti bilan samimiy muborakbod etadi.

Ushbu ulug' ayyom barchangizga sihat-salamatlik, oilaviy farovonlik va tinchlik-xotirjamlik olib kelsin. Ezgu niyatlaringiz amalga oshsin, xonadonlaringizdan fayzu baraka arimasin. Bayramingiz qutlug' bo'lsin!



«Fundamental, amaliy tibbiyot va farmatsiya yutuqlari» nomli talabalar va yosh olimlarning 80-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi

15-may kuni universitetda "Fundamental, amaliy tibbiyot va farmatsiya yutuqlari" nomli talabalar va yosh olimlarning 80-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida Rossiya, Belarus, Bolgariya, Hindiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston hamda Respublikamizning 47 ta oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot markazlaridabn 1200 nafar talabalar va yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi. Anjumanning tantanali ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Kongratbay Sharipov hamda SamDTU rektori, professor Jasur Rizayev so'zga chiqib, tashkil etilgan mazkur konferensiyaning Respublikamizda ilmiy va amaliy tibbiyotning yanada rivojlanishi, xalqaro maydon bilan tajriba almashishning kengayishidagi ahamiyati haqida so'z yuritib, barcha ishtirokchilarga omad tiladilar. Ochilishning keyingi qismi bayramona tarzda kuy-qo'shiqlar, qiziqarli chiqishlar bilan ko'tarinki ruhda davom etdi.

Ochilish marosimidan so'ng konferensiya o'z ishini 25 ta sho'ba bo'yicha davom ettirdi. Konferensiya sho'balarida talabalar va yosh tadqiqotchilarning taqdimotlari namoyish etildi. Anjuman davomida tibbiyotning ko'plab dolzarb muammolari bilan bir qatorda "Yosh olimlar klubi" davrasi tashkil etilib, tibbiyotdagi innovatsion g'oyalar, Start-UP loyihalari muhokama qilindi. Yakunda anjuman ishtirokchilariga diplom, sertifikat hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

Samarqand davlat tibbiyot universitetida bo'lib o'tgan «Fundamental, amaliy tibbiyot va farmatsiya yutuqlari» talabalar va yosh olimlar an'anaviy 80- Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi talabalar va yosh olimlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish, ularning salohiyati va ilmiy yutuqlaridan samarali foydalanish, fundamental va klinik fanlar o'qitish sifatini yanada oshirish, mamlakatimizda tibbiyot sohalarini rivojlantirish hamda oliyog'hlarning xalqaro hamkorligini rivoj toptirishga xizmat qiladi.



Yaponiyaning GIFU universiteti vakillari bilan hamkorlik masalalari muhokama qilindi

11-may kuni SamDTUga Yaponiyaning GIFU universiteti Sog'liqni saqlash boshqaruvi markazi direktori boshchiligidagi mehmonlar tashrif buyurdi.

Mehmonlarni universitet rektori Jasur Rizayev qabul qilib, o'zaro hamkorlik masalalariga qaratilgan uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuv davomida Samarqand davlat tibbiyot universiteti hamda GIFU universiteti o'rtasidagi ilmiy va amaliy aloqalarni yanada mustahkamlash, kelgusida birgalikdagi loyihalarni amalga oshirishga kelishildi. Jumladan, SamDTU

huzuridagi I.M. Isaev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy tadqiqot instituti bilan birgalikda O'zbekiston aholisi ichak mikrobiomining metagenomik tahliliga asoslangan simobga chidamlilik genlarini xalqaro qiyosiy o'rganish ishlarini yo'lga qo'yish masalasi muhokamar markazida bo'ldi.

Universitetimizning dunyoning rivojlangan mamlakatlari oliy ta'lim muassasalari bilan ilmiy hamda amaliy hamkorligi mamlakatimiz ilm-fani va sog'liqni saqlash xizmatini modernizatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi.



Samarqand va Sankt-Peterburg o'rtasidagi tibbiy hamkorlik yana bir muhim qadam bilan mustahkamlandi

SamDTU hamda I.I. Mechnikov nomidagi Shimoliy-G'arbiy davlat tibbiyot universiteti urologiya kafedralari o'rtasida vebinar tashkil etildi.


Onlayn uchrashuv davomida SamDTU vakillari o'z ma'ruzalari bilan qatnashdilar. Shuningdek, Rossiya tomonidan professor Nazarov Toirxon Xaqnazarovich ishtirok etib, "Bepushtlikni davolashning zamonaviy yechimlari" mavzusida olib borilayotgan tadqiqotlar va amaliy yondashuvlar yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida ikki universitet o'rtasida



hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha qator kelishuvlarga erishildi. Jumladan, Mechnikov universiteti urologiya kafedrasida mutaxassislarining Samarqand shahriga tashrif buyurib, amaliy master-klasslar o'tkazishi rejalashtirildi.

Shu bilan birga, SamDTU urologiya kafedrasida xodimlari joriy yilning 18-19 iyun kunlari Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tadigan, Mechnikov universiteti Urologiya kafedrasining 125-yilligiga bag'ishlangan xalqaro urologlar kongressiga rasman taklif etildi.



Samarqand davlat tibbiyot universiteti Silk-road universitetlar tarmog'iga a'zo bo'ladi

29-aprel kuni universitetga Janubiy Koreyada joylashgan Silk-road university network (Ipak yo'li universitetlari tarmog'i) bosh kotibi, professor Sungdon Hwang tashrif buyurdi.

Tashrif doirasida universitet rektori, professor Jasur Rizayev bilan uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Mazkur xalqaro tarmoqqa a'zolik Samarqand davlat tibbiyot universiteti uchun Buyuk Ipak yo'li mintaqasidagi yetakchi universitetlar bilan institutsional hamkorlikni kengaytirish, ular bilan talabalar va professor-o'qituvchilar uchun akademik mobillik dasturlarini joriy etish, qo'shma ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish hamda ilg'or tajriba almashinuvini yo'lga qo'yishga zamin yaratadi.

Shuningdek, uchrashuv davomida Silk-road university networkning Gretsiyada bo'ladigan keyingi yig'ilishida Samarqand davlat tibbiyot universitetining a'zoligi bo'yicha memorandumni imzolashga kelishildi.

Ma'lumot o'rnida: SUN (Silk-Road Universities Network) — bu Ipak yo'li bo'yab joylashgan mamlakatlarning universitetlarini birlashtiruvchi, talaba va professor-o'qituvchilar almashinuvi, qo'shma ilmiy loyihalar, madaniy va akademik integratsiyani rivojlantirishga qaratilgan xalqaro ta'lim va ilmiy hamkorlik tarmog'i. 2015-yildan boshlab faoliyat yuritayotgan tarmoq bugungi kunda dunyoning 28 mamlakati bo'yab 90 ga yaqin universitetlarni o'zida birlashtirgan.

Buxoroda IV O'zbekiston – Turkiya rektorlar forumi bo'lib o'tdi

21-23-may kunlari Buxoroda "Global raqobatbardoshlik uchun O'zbekiston – Turkiya oliy ta'lim hamkorligini rivojlantirish" mavzusiga bag'ishlangan IV O'zbekiston – Turkiya rektorlar forumi bo'lib o'tdi.

Anjuman davomida ikki mamlakat universitetlari o'rtasida qo'shma ta'lim dasturlarini kengaytirish, talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, forumda Samarqand davlat tibbiyot universiteti hamda Turkiyaning Kafkaz Universiteti bilan o'zaro hamkorlik memorandumini imzolandi. Ushbu kelishuv ikki davlat oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash va xalqaro tajriba almashinuvini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Voronej davlat tibbiyot universiteti bilan hamkorlik yanada kengayadi

SamDTUga N.N. Burdenko nomidagi Voronej davlat tibbiyot universiteti rektori vazifasini bajaruvchi, tibbiyot fanlari doktori, professor, Ivan Petrovich Moshurov boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi.

Mehmonlarni universitet rektori Jasur Rizayev kutib oldi. Mehmonlar universitet va unda yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, o'quv va laboratoriya

xonalari, universitetda olib borilayotgan ilmiy va amaliy ishlar ko'zdan kechirilib, universitet faoliyati haqida iliq fikrlar bildirildi.

Tashrif doirasida ikki tomonlama uchrashuv tashkil etilib, o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, qo'shma ta'lim dasturlari birgalikdagi loyihalarni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.



Universitet Indoneziyaning yetakchi oliygohi bilan hamkorlik qiladi

20-may kuni universitetga Indoneziyaning Alma Ata universiteti rektori, professor Hamam Hadi boshchiligidagi mehmonlar tashrif buyurdi.

Tashrif doirasida universitet rektori Jasur Rizayev bilan uchrashuv tashkil etilib, o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish hamda kelgusida birgalikdagi ilmiy-amaliy loyihalarni ilgari surish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida ilmiy-tadqiqot loyihalari va qo'shma ilmiy nashrlar bo'yicha hamkorlik qilish, ilmiy materiallar, shuningdek, professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvini tashkil etish, birgalikda ilmiy-amaliy anjumanlar va simpoziumlar tashkil qilish masalalarini o'z ichiga olgan memorandum imzolandi.

Tadbirlar



Hind madaniyatiga bag'ishlangan "Namaste Samarkand" tadbiri o'tkazildi

Universitetimizda Respublikamiz bilan bir qatorda ko'plab xorijiy mamlakatlardan ham 4500 ga yaqin talabalar tahsil olib kelmoqda. Ularning aksariyatini Hindistonlik talabalar tashkil etadi.

1-may kuni universitetda tahsil olayotgan Hindistonlik talabalar hamda THE MD HOUSE kompaniyasi tashabbusi bilan Hind madaniyatiga bag'ishlangan "Namaste Samarkand" tadbiri bayramona tarzda tashkil etildi.

Tadbirda so'zga chiqqan rektor Jasur Rizayev bugungi kunda universitetda ko'p millatli muhitning yaratilganligi nafaqat bilim va malakalarning integratsiyalashuvini ta'minlash barobarida oliygohning o'ziga xos madaniyatlar chorrahasi sifatida namoyon bo'lishini ta'kidladi. Shuningdek, Xalqaro ta'lim fakulteti talabalarini tabriklab, ularning keyingi o'qishlari va faoliyatlariga omad tiladi.

Tadbir davomida o'z bilimi, xulqi hamda faolligi bilan namuna bo'lib kelayotgan talabalar hamda o'qituvchilarga maxsus sertifikatlar taqdim etildi. Tadbir hindistonlik talabalarning milliy raqs va madaniy chiqishlari bilan davom etdi.

SamDTUda professor Peng Hanwei ishtirokida onkologiya bo'yicha seminar o'tkazildi

5-may kuni SamDTUda Shantou universiteti tibbiyot kolleji onkologiya shifoxonasining bosh va bo'yin jarrohligi bo'limi direktori, professor Peng Hanwei ishtirokida seminar tashkil etildi.

Seminar "Yuz nervi anatomiyasini hisobga olgan holda quloq oldi so'lak bezlari o'smalarida jarrohlik texnikasi" mavzusida ma'ruza qilinib, o'zaro fikr almashildi. Seminar davomida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

Seminar davomida yuz nervi anatomiyasini hisobga olgan holda jarrohlik texnikasi bo'yicha ilmiy ma'ruza qilinib, ishtirokchilar o'zaro tajriba almashdi hamda o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob oldilar.



Universitetda "Rossiya – olimlar mamlakati. Yosh tibbiyot" forumi doirasida ilmiy-ta'limiy pitch-sessiya o'tkazildi

16-may kuni universitetda "Rossiya – olimlar mamlakati. Yosh tibbiyot" Butunrossiya yozgi forumining ilmiy-ta'limiy pitch-sessiyasi bo'lib o'tdi.

V.P. Filatov nomidagi Xalqaro Biotibbiyot Texnologiyalarini Rivojlantirish Jamg'armasi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti va universitet huzuridagi Immunologiya, allergologiya va inson genomikasi ilmiy-amaliy markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan saralash bosqichida ishtirokchilar o'z ishlanmalarini ham bevosita, ham onlayn tarzda taqdim etdilar. Mazkur sessiyada Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistondan ham talabalar ishtirok etdi.

Bu mintaqada yagona ilmiy makon yaratish hamda tibbiy innovatsiyalar yo'nalishida iste'dodli yosh tadqiqotchilarni aniqlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi, desak mublag'a bo'lmaydi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, saralash bosqichi g'oliblari 22–25-iyun kunlari Moskva shahrida bo'lib o'tadigan "Rossiya – olimlar mamlakati. Yosh tibbiyot" Butunrossiya yozgi forumida qatnashadilar.

SamDTU professor-o'qituvchilari va talabalari Rossiyada xalqaro maydonda munosib ishtirok etdi

Akademik mobillik va xalqaro olimpiadadagi muvaffaqiyatlar universitetning xalqaro hamkorlikdagi salohiyatini yana bir bor namoyon etdi.

Universitetning professor-o'qituvchilari akademik mobillik doirasida Patris Lumumba nomidagi Rossiya Xalqlar do'stligi universitetida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkazdilar.

Shuningdek, universitetimiz talabalar Stomatologiya yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan XII xalqaro oliy o'quv yurtlarlari aro ilmiy olimpiadada ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdilar.

Mazkur tashrif va xalqaro ilmiy olimpiadadagi yutuqlar Samarqand davlat tibbiyot universitetining xalqaro ta'lim va ilmiy hamkorlikdagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.



SamDTUda yaponiyalik professorlar ishtirokida sog'liqni saqlash tizimi bo'yicha ma'ruza o'tkazildi

Universitetning Xalqaro ta'lim fakulteti yuqori bosqich talabalar uchun Yaponiyaning nufuzli GIFU universiteti Sog'liqni saqlash boshqaruvi markazi direktori, professor Yamamoto Mayumi hamda Yoshimasa Yamamoto tomonidan Yaponiya sog'liqni saqlash tizimi mavzusida ma'ruza tashkil etildi.

Ma'ruza davomida Yaponiya tibbiyot tizimining zamonaviy yondashuvlari, sog'liqni saqlash boshqaruvi, tibbiy xizmat sifati hamda xalqaro tajribalar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Tadbir talabalarda katta taassurot qoldirib, ularning xalqaro tibbiyot tajribasiga bo'lgan qiziqishini yanada oshirdi.



Universitet jamoasi Belarusdagi xalqaro harbiy-vatanparvarlik o'yinlarida yuqori natijalarga erishdi

13-15-may kunlari Belarus respublikasining Vitebsk shahrida "Men armiyaga borardim" xalqaro harbiy-vatanparvarlik o'yinlari o'tkazildi.

Vitebsk davlat tibbiyot universiteti tashabbusi bilan o'tkazilgan ushbu o'yinlarida Rossiya, O'zbekiston va Belarus Respublikalaridan tashrif buyurgan 10 ga yaqin oliy ta'lim muassasalarining 120 dan ziyod talabalar ishtirok etdilar.

Quvonarli, mazkur xalqaro harbiy-vatanparvarlik o'yinlarida Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoasi ham faol ishtirok etib, yuqori o'rinlarni qo'lga kiritdi.

Umumiy hisobda jamoamiz 1 ta 1-o'rin, 1 ta 3-o'rin hamda 2 ta nominatsiya bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi.

"KARYERA KUNI" MEHNAT YARMARKASI O'TKAZILDI

Universitetda o'tkazilgan "Karyera kuni" mehnat yarmarkasi bitiruvchi talabalar uchun real ish imkoniyatlarini yaratib, sog'liqni saqlash tizimini malakali kadrlar bilan ta'minlashga xizmat qildi.

SamDTU bitiruvchi bosqich talabalari hamda magistratura va klinik ordinatura (rezidentura) mutaxassisliklarining bitiruvchi bosqich talabalarini sog'liqni saqlash tizimiga qarashli tibbiyot muassasalarini kadrlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining tahsil olish jarayonida mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlari va munosib daromad olishlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini yanada oshirish maqsadida turli chora tadbirlarni ilgari surib kemoqda.

Jumladan 30-aprel kuni "Yoshlar kuni" doirasida bitiruvchi bosqich talabalarini hamda "Karyera kuni" mehnat yarmarkasi bo'lib o'tdi. Mehnat yarmarkasida viloyatdagi barcha tibbiyot birlashmalari va tibbiy muassasalar bo'sh ish o'rinlari bilan ishtirok etdilar.

Mazkur yarmarkada talabalar bo'sh ish o'rinlari hamda ishga joylashish tartib-qoidalari bilan tanishib, ish beruvchi tashkilotlar bilan suhbatlar uyushtirdilar.



Tadbirda 1500 nafar turli yo'nalishlar bo'yicha ta'limni tamomlayotgan bitiruvchilar qatnashib, jami 122 nafar ortiq bitiruvchilar o'zlarining ish o'rinlarini band qiluvchi shartnomalar tuzishdi.

Shuningdek, tadbirda Toshkent davlat tibbiyot universitetida tahsil olayotgan Samarqandlik bitiruvchilar hamda mas'ul xodimlar, jumladan universitetning Davolash fakulteti dekani E.Rizayev ham ishtirok etdi.

Tadbirning keyingi qismida viloyat rahbarlarining yoshlar bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda Samarqand viloyati hokimi o'rinbosari Xusan Tuxtayev, universitet rektori Jasur Rizayev, Samarqand viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i Suxrob Zayniyev hamda viloyatdagi tibbiyot birlashmalari rahbarlari va talabalar ishtirok etdi.

Yig'ilishda talabalarga mavjud ish o'rinlari va birlashmalarda yaratilgan sharoitlar haqida ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javob olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.



"SOG'LOM HAYOT UCHUN 5000 QADAM" SHIORI OSTIDA OMMAVIY YURISH MARAFONI O'TKAZILDI

Bugungi kunda aholi hamda yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, jismoniy faollikni va sportga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish maqsadida bir qator ommaviy sport tadbirlari tashkil etilib kelinmoqda.

Jumladan universitetda "Sog'lom hayot uchun 5000 qadam" shiori ostida ommaviy yurish marafoni va ertalabki badantarbiya mashqlari bajarildi. Erta tongdan universitet rektori Jasur Rizayev boshchiligidagi butun universitet jamoasi hamda talabalar yurish marafonida ishtirok etib, badantarbiya mashqlarini bajardilar.

Mazkur sport tadbiri ishtirokchilarda sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirib, jamoada birdamlik va ko'tarinki kayfiyat muhitini mustahkamladi.



STOMATOLOGIYA SOHASI RIVOJIGA QARATILGAN XALQARO TADBIRLAR

5-7-may kunlari Toshkent shahrida III Xalqaro stomatologiya ko'rgazmasi va IDECA-2026 konferensiyasi, O'zbekiston stomatologlarining VIII Xalqaro ilmiy-amaliy kongressi hamda O'zbekiston stomatologlari assotsiatsiyasining IX syezdi bo'lib o'tdi.

Mazkur nufuzli xalqaro tadbirlarda Samarqand davlat tibbiyot universiteti ham tashkilotchi sifatida ishtirok etdi. Shuningdek, universitet professor-o'qituvchilaridan iborat jamoa ham xalqaro anjumanda faol ishtirok etdi. Jumladan, anjuman doirasida universitet rektori Jasur Rizayev tomonidan "O'zbekistonda stomatologiyaning rivojlanishi" mavzusida ma'ruza qilindi.

Kongress va qurultoy doirasida ishtirokchilar uchun ilmiy ma'ruzalar, amaliy seminarlar, mahorat darslari hamda tajriba almashish sessiyalari tashkil etildi. Shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, yangi loyihalarni yo'lga qo'yish va stomatologiya xizmatlari sifatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

PAYARIQ JSTDA "TIBBIY TA'LIMDA UZVIYLIK VA INTEGRATSIYA: UNIVERSITET VA TEXNIKUM HAMKORLIGI" MAVZUSIDA ANJUMAN O'TKAZILDI

Bugungi kunda tibbiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, o'rta va oliy tibbiy ta'lim hamkorligini mustahkamlash orqali ushbu tizimga malakali kadrlar yetishtirishni jadallashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida universitet va jamoat salomatligi texnikumlari o'rtasida doimiy tarzda hamkorlik aloqalari o'rnatilgan.

Jumladan 28-aprel kuni Abu Ali ibn Sino nomidagi Payariq jamoat salomatligi texnikumida "Tibbiy ta'limda uzviylik va integratsiya: universitet va texnikum hamkorligi" mavzusida anjuman o'tkazildi.

Anjuman doirasida Payariq jamoat salomatligi texnikumi faoliyati, yaratilgan sharoitlar hamda universitet bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar bilan yaqindan tanishildi.

Anjumanda Samarqand viloyati hokimi o'rinbosari Xusen Tuxtayev, universitet rektori Jasur Rizayev.

Payariq tumani hokimi Shunqor Xudoyberdiyev, Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i Suxrob Zayniyev, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i Aziz Nasimovlar bevosita ishtirok etib, tashkil etilayotgan mazkur anjumaning sohani rivojlantirishdagi muhim ahamiyatini alohida ta'kidladilar.

Anjuman davomida zamonaviy, innovatsion o'quv adabiyotlarini ta'lim tizimiga joriy qilish, tibbiy ta'limda dual model, universitet va texnikum integratsiyasi, ta'lim jarayonlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini jalb



qilish va boshqa muhim mavzularga bag'ishlangan ma'ruzalar tinglanib, atroflicha muhokama qilindi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti va Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumlari o'rtasidagi samarali hamkorlik nafaqat ta'lim sifati, balki ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va xalqaro aloqalarning yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

"TIBBIYOTNING DOLZARB MUAMMOLARIGA INNOVATSION YONDASHUV" MAVZUSIDA "ANDIJON-2026" II XALQARO FAN OLIMPIADASI BO'LIB O'TDI

Andijon davlat tibbiyot institutida "Tibbiyotning dolzarb muammolariga innovatsion yondashuv" mavzusidagi Respublika yosh olimlar ilmiy-amaliy anjumani hamda "Andijon-2026" II Xalqaro fan olimpiadasi bo'lib o'tdi.

Mazkur nufuzli tadbirlarda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistondan kelgan professor-o'qituvchilar, yosh olimlar hamda iqtidorli talabalar ishtirok etdi.

Olimpiada 20 ta fan yo'nalishi bo'yicha: test sinovlari, fan bo'yicha savollar, vaziyatli masalalar hamda amaliy ko'nikmalar asosida o'tkazildi. Unda 150 nafardan ziyod talabalar ishtirok etdi.

Shu jumladan olimpiadada universitetimiz talabalaridan iborat jamoa ham faol ishtirok etdi.



SAMDTU VA KATTAQO'RG'ON JAMOAT SALOMATLIGI TEXNIKUMI HAMKORLIGI AMALIYOTDA O'RGANILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Samarqand davlat tibbiyot universitetini tashkil etish va shahadagi kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra universitet Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumlariga ta'lim va amaliyot sifati uchun bevosita mas'ul bo'lib, o'quv-metodik va o'quv jarayoniga tajribali mutaxassislarni jalb etish, texnikum o'qituvchilariga ilmiy-metodik jihatdan ko'maklashish belgilangan.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti va jamoat salomatligi texnikumlari o'rtasidagi hamkorlik borasida qilinayotgan ishlar mas'ullar tomonidan o'rganilib borilmoqda. Jumladan, SamDTU akademik litsey va jamoat salomatligi texnikumlari bilan ishlash bo'limi boshlig'i B.Eshbekov va mas'ullar Abu Ali ibn Sino nomidagi Kattaqo'rg'on jamoat salomatligi texnikumida bo'lib, dars jarayonlarining borishi, o'zaro hamkorlikda qilingan ishlar o'rganildi.

Shuningdek, talabalar bilan muloqot tashkil etilib, Respublikamizdagi top-1000 talikka kirgan yagona tibbiy oliy ta'lim muassasasidagi sharoitlar, ta'lim yo'nalishlari, qo'shma ta'lim, tibbiyot texnikumi bitiruvchilariga berilayotgan imtiyozlar haqida ham atroflicha ma'lumotlar berildi.



"ED SMART FIESTA" SPORT MUSOBAQALARI G'OLIBLARI TAQDIRLANDI

SamDTU Xalqaro ta'lim fakulteti hamda Ed Smart kompaniyasi hamkorligida tashkil etilgan "Ed Smart Fiesta" sport musobaqalari g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbirda universitet rektori Jasur Rizaev ishtirok etib, musobaqalarda yuqori natijalarni qo'lga kiritgan g'olib va

sovrindorlarga medallar, diplomlar hamda kuboklarni tantanal ravishda topshirdi.

Bu kabi sport tadbirlari talaba-yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sportga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish hamda iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.



12-MAY - "XALQARO HAMSHIRALAR KUNI" KENG NISHONLANDI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli shifoxonasida 12-may - "Xalqaro hamshiralarni kuni" keng nishonlandi.

Bayram munosabati bilan klinikada faoliyat yuritayotgan hamshiralarni tabriklab, "Yilning eng yaxshi hamshirasi" ko'rik-tanlovi g'oliblari hamda 15 ta nominatsiya bo'yicha "Yilning eng yaxshi o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimi" tanlovi sovrindorlari taqdirlandi. Tadbir doirasida hamshiralarning mehnati e'tirof etilib, tibbiyot tizimida ularning o'rni va ahamiyati yana bir bor yuksak qadrlanishi ta'kidlandi.



"REKTOR KUBOGI" G'OLIBLARI TAQDIRLANDI

Universitetda sport oyligi doirasida o'tkazilgan "Rektor kubogi" sport musobaqalarining taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Marosimda so'zga chiqqan universitet rektori Jasur Rizayev bugungi kunda yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va sportga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish maqsadida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar va tashkil etilayotgan tadbirlarga alohida to'xtalib o'tdi.

Musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalar va jamoalarga universitet rektori tomonidan kuboklar, diplom hamda esdalik sovg'alari taqdim etildi.



"NOMINGIZ DILLARDA MANGU YASHAYDI" NOMLI UCH AVLOD UCHRASHUVI HAMDA XOTIRA DARS TASHKIL ETILDI

7-may kuni universitetda "Yoshlar kuni" hamda 9-may - "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan "Nomingiz dillarda mangu yashaydi" nomli uch avlod uchrashuvi hamda xotira darsi tashkil etildi.

Mazkur uchrashuvda nuroniy faxriylar, ustoz-professorlar hamda talaba-yoshlar ishtirok etib, avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlik, Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlar va tarixiy xotirani asrash masalalari yuzasidan samimiy suhbatlar olib borildi.

Tadbir davomida faxriy mehmonlar tomonidan yurt tinchligi, xalq farovonligi va bugungi dorilamon kunlarga yetib kelish yo'lida ko'rsatilgan jasorat va fidoyilik haqida hayotiy misollar keltirildi. Yoshlar esa katta avlod vakillarining boy hayotiy tajribasi, ibratli faoliyati va ezgu nasihatlarini katta qiziqish bilan tingladilar.

Bunday uchrashuvlar yoshlarning ma'naviy kamolotida muhim o'rinni tutib, avlodlar davomiyligi, milliy birlik va o'zaro hurmat tamoyillarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



"YANGI O'ZBEKISTON - YOSHLAR MAMLAKATI!" SHIORI OSTIDA TADBIR TASHKIL ETILDI

19-may kuni universitetda "Yangi O'zbekiston - umumiy uyimiz!", "Yangi O'zbekiston - yoshlar mamlakati!" shiori ostida bag'rikenglik g'oyalari o'zida mujassam etgan tadbir tashkil etildi.

Tadbirda Din ishlari bo'yicha qo'mitaning Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi boshligi S.Boymurodov ishtirok etib, ko'p millatli mamlakatimizda turli millat, din egalari hamjihatlikda do'stona hayot kechirayotganini alohida ta'kidladi.

Tadbir turli millat va elatlarning madaniy chiqishlari, milliy taomlar namoyishlari bilan ko'tarinki ruhda davom etdi.

"MEGA MASTER" XALQARO STOMATOLOGIK TANLOVI BO'LIB O'TDI

4-may kuni Toshkent davlat tibbiyot universiteti va Samarqand davlat tibbiyot universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilgan «MEGA Master» xalqaro stomatologik tanlovi o'tkazildi.

Tanlovda O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi, Belorussiya, Qozog'iston va Tojikiston tibbiyot oliygo'harli stomatologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etdi.

Shu jumladan, Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi ham mazkur tanlovda fao ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Tanlov xalqaro miqyosda yosh stomatologlarning bilim va amaliy ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish hamda tajriba almashish uchun muhim maydon bo'ldi. SamDTU talabasi esa yuqori natija qayd etib, universitet nufuzini yanada oshirishga hissa qo'shdi.



USTOZ XOTIRASI QALBLARIMIZDA MANGU YASHAYDI

Yurtimizning fidoyilaridan biri, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash sohasi va oliy ta'lim tizimi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan mashhur olim, bolalar xirurgi, tibbiyot fanlari doktori, professor Axmedov Yusufjon Mahmudovich 69 yoshida vafot etdi.

Y.M.Axmedov 1957-yil 17-avgustda Samariand viloyati Samarqand shahrida shifokorlar oilasida tug'ilgandi.

1980-yilda Samarqand davlat tibbiyot institutini a'lo baholar bilan tamomlagan edi. 1983-1986 yillarda Moskva ilmiy-tadqiqot pediatriya institutining bolalar xirurgiyasi yo'nalishi bo'yicha aspiranturada tahsil olgan edi.

1986-yilda tibbiyot fanlari bo'yicha nomzodlik, 1993-yilda doktorlik ilmiy dissertatsiyalarni muvaffaqiyatli himoya qilib, 2000-yilda professor ilmiy unvoniga sazovor bo'lgan edi.

Ustoz Yusufjon Mahmudovich 1980-1981 yillarda Samarqand davlat tibbiyot instituti klinikasining fakultet xirurgiyasi bo'limida vrach-intern, 1981-yilda fakultet xirurgiyasi kafedrasida vrach-ordinator, 1981-1983 yillarda Bolalar xirurgiyasi kafedrasida klinik ordinator, 1986-1995 yillarda 2-son Bolalar xirurgiyasi kafedrasida assistent, 1995-2000 yillarda 1-son Bolalar xirurgiyasi

kafedrasida assistent, professor, 2000-2006 yillarda bolalar xirurgiya kafedrasida professori, 2006-2010 yillarda Bolalar xirurgiyasi va nurli diagnostika kafedrasida professori, 2007-2010 yillarda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Samarqand filiali qoshidagi Bolalar xirurgiyasi va urologiyasi bo'limi ilmiy rahbari, 2010-2014 yillarda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Samarqand filiali direktori, 2014-2020 yillarda Samarqand davlat tibbiyot instituti Bolalar xirurgiyasi kafedrasida professori, 2020-2022 yillarda Samarqand davlat tibbiyot instituti 2-son Bolalar xirurgiyasi kafedrasida mudiri kabi turli lavozimlarda faoliyat yuritgan edi.

2022 yildan buyon Samarqand davlat tibbiyot universiteti 2-son Bolalar xirurgiyasi kafedrasida mudiri vazifasini sidqidildan bajarib kelayotgan edi.

Y.M.Axmedov ilmiy izlanishlar olib borib, 30 dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanma, 10 ta monografiya, 1000 ga yaqin ilmiy maqola, 20 ga yaqin ixtiro patenti muallifi edi. Uning rahbarligi va ilmiy maslahatchiligi ostida 20 ga yaqin nomzodlik va 10 ga yaqin doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan.

Ustoz "Umumiy amaliyot shifokori axborotnomasi", "Biologiya muammolari", "O'zbekiston xirurgiyasi", "Tibbiy ilmiy va

o'quv-uslubiy jurnal", "Tibbiyotda yangi kun" jurnallari tahrir hay'atlari a'zosi, qolversa, Rossiya va O'zbekiston bolalar xirurgiari assotsiatsiyalari hamda Rossiya xirurglar jamiyati a'zosi ham edi.

Y.M.Axmedovning fidokorona mehnati yuksak baholanib, "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15 yilligi", "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligi" esdalik nishonlari, "Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari uchun" ko'krak nishoni, O'zbekiston Respublikasi Soqg'liqni saqlash vazirligi va Samarqand viloyati hokimligining Faxriy yorliqlari, Tashakkurnomalari bilan taqdirlangan edi.

Y.M.Axmedov ko'p qirrali jarroh olim bo'lib, bolalar urologiyasi, abdominal, torakal va kolorektal xirurgiya sohalaridagi ustuvor yo'nalishlarni muvaffaqiyatli rivojlantirdi. Shu bilan birga, o'zining boy tajribasi va mahoratini yosh mutaxassislariga faol ravishda o'rgatdi. Uning rahbarligida oshqozon-ichak tizimi, siydik-tanosil tizimi hamda ko'krak qafasi a'zolari kasalliklari bilan og'rikan go'dak va yosh bolalarni davolashning kam invaziv jarrohlik texnologiyalari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Yusufjon Mahmudovich o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni, vijdonan, halol



bajardi. Shifo istab kelgan ko'plab bemorlarni dardiga davo bo'ldi, ularga shifokorlik mehrini berib, davoladi.

Y.M.Axmedov universitet jamoasida, hamkasblari, shogirdlari orasida hurmatga sazovor edi. To'g'riso'zligi, mehribonligi, g'amxo'rliqi, madaniyatli va kamtarligi bilan ajralib turardi.

Yusufjon Mahmudovichning fidoyiligi, jonkuyarlik va insoniylik fazilatlarini qalbimizda mangu yashaydi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektorati va Kasaba uyushmasi qo'mitasi

ISHTIXON ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI JAMOAT SALOMATLIGI TEXNIKUMI

Bugungi kunda mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish hamda malakali o'rta bo'g'in tibbiyot kadrlarini tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday ezgu maqsadlar yo'lida samarali faoliyat yuritib kelayotgan ta'lim muassasalaridan biri – Ishtixon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumidir.

Texnikum bugungi kunda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, kasbiy mahorati yuqori bo'lgan tibbiyot xodimlarini tayyorlashda muhim o'rin egallab kelmoqda. Ta'lim muassasasida o'quv jarayonlari ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilib, nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'un holda olib borilmoqda. Bu esa o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni amaliy faoliyatga puxta tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur o'quv yilida texnikumda faoliyat olib borayotgan 60 nafarga yaqin malakali o'qituvchilar tomonidan "Stomatologiya ishi", "Farmatsiya ishi", "Feldsher-laborantlik ishi", "Hamshiralik ishi", "Tibbiyot brigadasi hamshirasi", "Funksional diagnostika ishi" hamda "Feldsherlik ishi" yo'nalishlarida tahsil olayotgan 1300 nafarga yaqin o'quvchiga sifatli ta'lim berib kelinmoqda.

Texnikum pedagoglari fan yutuqlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalangan holda innovatsion dars mashg'ulotlarini tashkil etib, o'quvchilarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Ularning fidokorona mehnati hukumatimiz tomonidan munosib e'tirof etilmoqda.

Xususan, Hamshiralik ishi fani o'qituvchisi Sh. Majidova "O'rta maxsus va professional ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni bilan, ingliz tili fani o'qituvchisi M. Vlayatova "Ta'lim sohasidagi xizmatlari uchun" hamda "Vatan iftixori" xalqaro esdalik ko'krak nishonlari bilan, tarix fani o'qituvchisi A. Majidov "Yosh tashabbuskor" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. Shuningdek, Akusherlik va ginekologiya fani o'qituvchisi F. Yuldasheva "Ta'lim iftixori", "O'z kasbining fidoyisi", "Ilm-fan tashabbuskori" esdalik nishonlari hamda "Vatan iftixori" xalqaro esdalik ko'krak nishoni bilan mukofotlangan bo'lsa, Hamshiralik ishi fani o'qituvchisi G. Asatullayeva Mustaqil Davlatlar

Hamdo'stligi tomonidan ta'xis etilgan "Yurt iftixori" esdalik nishoni bilan taqdirlangan.

Texnikumda Samarqand davlat tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilari bilan hamkorlik aloqalari izchil yo'lga qo'yilgan bo'lib, mazkur hamkorlik doirasida fanlar kesimida darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar hamda ilmiy maqolalar yaratilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Shu bilan birga, tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan haftaning shanba kunlari texnikum o'qituvchi va o'quvchilari uchun dolzarb mavzularda o'nlab mahorat darslari, 40 dan ortiq seminar-treninglar hamda ochiq darslar tashkil etib kelinmoqda.

Samarqand davlat tibbiyot universitetining 1-son Xirurgik kasalliklar va transplantologiya, 2-son Xirurgik kasalliklar, 2-son Otorinolarologiya, Davolash ishi fakulteti Pediatriya, Ftiziatriya va pulmonologiya, Urologiya, 3-son Ichki kasalliklar, Onkologiya, Gematologiya, Ichki kasalliklar propedevtikasi, Anesteziologiya, reanimatsiya va shoshilinch tibbiyot, 3-son Akusherlik va ginekologiya hamda 1-son Akusherlik va ginekologiya kafedralari bilan texnikum kafedralari o'rtasida samarali va tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Mazkur hamkorlik doirasida 2025-2026-o'quv yili davomida universitet professor-o'qituvchilari tomonidan texnikum o'quvchilari uchun "Xirurgiya va reanimatsiya asoslari" fanidan mahorat darslari, "Aseptika va antiseptika" hamda "Anafilaktik shokda birinchi yordam" mavzularida seminar-treninglar tashkil etildi. Bu tadbirlar o'quvchilarning amaliy bilimlarini mustahkamlash va kasbiy tayyorgarligini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, universitet professor-o'qituvchilari tomonidan



texnikum Axborot-resurs markazi fondiga "Jamoada hamshiralik ishi", "Terapiyada hamshiralik jarayoni", "Gistologiya asoslari", "Mutaxassislikka kirish", "Tibbiy biofizika", "Fitoterapiya", "Umumiy va xususiy fizioterapiya asoslari" kabi darsliklarning jami 70 nusxasi sovg'a qilindi. Mazkur tashabbus o'quvchilarning ilmiy va amaliy adabiyotlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Bundan tashqari, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida SamDTUning 2-son Xirurgik kasalliklar kafedrasida professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda 2026-yil 18-may kuni texnikum hududida manzarali daraxt ko'chatlarini ekish ishlari amalga oshirildi. Ushbu ekologik tashabbus yosh avlod qalbidagi tabiatga mehr va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda Ishtixon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o'zining salohiyatli pedagoglari, iqtidorli o'quvchilari va zamonaviy ta'lim muhiti bilan hududdagi yetakchi ta'lim maskanlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Kelgusida ham texnikum jamoasi sog'liqni saqlash tizimi uchun fidoyi, bilimli va malakali mutaxassislarni tayyorlash yo'lida o'z faoliyatini izchil davom ettiradi.

A.Majidov
Ishtixon Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

Tahririyat raisi:

J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:

E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:

G.U. Lutfullayev,

S.A. Karabayev, A.A. Axmedov,

B.E. To'xtarov, F.A. Daminov,

S.E. Mamaradjabov, U.S. Pulatov

N.M. Shavazi.



SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:

O. Muratov

Operator va sahifalovchi:

A. Xolboyev

Fotomuxbir:

O. Axmedov

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.

INDEKS: 5539

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.

Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75

e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta «Erudit» MChJ bosmaxonasida ofset usulida chop etildi. 2 bosma taboq.
Nashrga ruxsat berildi: 2026-yil, 3-iyun. Adadi 500 nusxa. Buyurtma: 408